



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2022 йил «26» июль

VI-51-142-8-109-K/22

Ангор туман ҳокимлиги

Yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi ishlar natijadorligi va yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish borasidagi dolzarb vazifalarning tumandagi ijrosi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonuniga ko'ra yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar aniq belgilab qo'yilgan bo'lib, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yo'nalishidagi vakolatli idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida yoshlar masalalari bo'yicha idoralararo kengashi joriy etilgan. Bugungi kunda tumanda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 65 124 nafarni tashkil etib, shundan 16455 nafari 7 yoshgacha, 21461 nafari 7-15 yoshgacha, 30 976 nafari 16-30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir.

2022 yil davomida Yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi ishlar natijadorligi va yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish borasida kelgusida hayotda o'z yo'lini topishga yordam berish maqsadida muammosi bor 862 nafari yoshlar “Yoshlar daftari”ga kiritilgan. Ushbu yoshlarning 862 nafarida aniqlangan muammo va masalalar, ular bilan alohida ishlarni tashkil etish va amaliy yordamlar ko'rsatish yuzasidan 9 ta yo'nalish belgilab olingan. 8 ta yo'nalishda yoshlarning bandligi ta'minlanib, 1 ta yo'nalish asosida yoshlarga doimiy yordam berib borilib, “Yoshlar daftari” ro'yxatidan chiqarilgan.

Jumladan, yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali 61 nafar yoshlarga imtiyozli kreditlar ajratildi;

Ishga joylashtirish orqali 2 nafar yoshlarning bandligi ta'minlandi;

Qishloq xo'jaligi yo'nalishida yoshlarga ekin maydonlarini ajratish orqali 367 nafar yoshlar 73.2 gektardan ko'proq yer maydoni ajratilishi evaziga bandligi ta'minlandi;

Yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik muammosini hal etish bo'yicha yoshlarga yordam berib nazoratga olindi;

37 nafar yoshlarga safarbarlik chaqiruvi rezervi pullarini qoplash orqali yordam ko'rsatildi;

O'qishining shartnoma pullarini to'lashda amali yordam ko'rsatish orqali 73 nafar yoshlarga yordam berildi va boshqa yo'nalishlar orqali 122 nafar yoshlar "Yoshlar daftari"dan chiqarilgan. 2022 yilning 2-choragi davomida 662 nafar yoshlarning 430 nafari bandligi ta'minlangan, 110 nafarining ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik muammosi hal etilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19 yanvardagi 92-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida tumandagi 36 ta mahallalarga yoshlar yetakchisi lavozimiga munosib nomzodlar saralab olindi va ularning ish faoliyatini yaxlitlash maqsadida xonalar ajratilib, kompyuter jamlanmalari hamda planshetlar bilan ta'minlandi. Bugungi kunga qadar mahalladagi yoshlar yetakchilari tomonidan tumanda 1035 dan ortiq sport musobaqalari, 658 marotaba madaniy-ma'rifiy tadbirlar, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda huquqiy savodxonligini oshirish, tadbirkorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash yo'nalishida, ma'naviyat va kitobxonlikni targ'ib qilish yo'nalishida, "IT"dan samarali foydalanishni tashkil etish yo'nalishlarida 1128 marotaba tadbirlar o'tkazilib ushbu tadbirlarda 90547 nafar yoshlar qamrab olindi.

Yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi ishlar natijadorligi va yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish borasidagi dolzarb vazifalar ijrosi bo'yicha Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi rahbarining bergan axboroti yuzasidan xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tumanda yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi ishlar natijadorligi va yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish borasidagi dolzarb vazifalar ijrosi bo'yicha Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi rahbari bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o'rinbosari (O.Umarov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi (D.Shanayev), O'zbekiston yoshlar ittifoqi tuman Kengashi (T.Choriyev), tegishli bo'lim, idora va tashkilotlar rahbarlari birgalikda:

- yoshlarni ona Vatanga, oilaga, mustaqillik g'oyalariga muhabbat va

sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularga munosib mehnat sharoitlarini yaratish va mehnatga oid qonuniy huquqlarini himoya qilish orqali ularning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha doimiy tizimli ishlarni amalga oshirib borsin;

- yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, yoshlarning xohish-istaklari, muammolari va takliflarini o'rganish maqsadida doimiy ravishda "Hokim va yoshlar" uchrashuvlarini tashkil etsin.

3. Tuman Bandlikka ko'maklashish markazi (E.Ro'ziev), tuman sektor rahbarlari bilan birgalikda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan, mehnatga layoqatli ishsiz, ishga joylashtirilmagan yoshlar bandligini ta'minlash hamda kasb-hunarga o'qish va tadbirkorlik qilish istagini bildirgan fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish hamda kredit ajratish, qo'shimcha daromad olishlari uchun yetarli shart-sharoit yaratish bo'yicha belgilangan tartibda zaruriy choralarni ko'rsin.

4. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (O.Mamayusupov) tijorat banklari rahbarlari bilan hamkorlikda tadbirkorlikni boshlash uchun kredit so'rab murojaat qilgan yoshlarga kreditlar mablag'larini ajratish, chekka hududlarda shaxsiy tomorqani rivojlantirish uchun yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish, urug'liklar, ko'chatlar va sug'orish vositalari xarid qilish uchun amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha zaruriy choralarni ko'rish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorda belgilab berilgan topshiriqlarning bajarilishi yuzasidan tegishli rahbarlar amalga oshirilgan ishlar to'g'risida har oy yakunida xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot taqdim etsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (R.Kobulova) va Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (Sh.Qo'ziyeva) zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV